QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

https://doi.org/10.70728/c.series.pedm.v08.i10.017

MANTIQIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY TA’LIM YONDASHUVLARI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Xayriyev Elyor Ibragimovich
Samarqand davlat pedagogika institute Informatika kafedrasi dotsenti (PhD)
elyorboburjon22@gmail.com
Xudoyberdiyeva Laylo Sanjar qizi
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi 2-kurs magistranti
@laylosanjarovnagmail.com

Annotatsiya Mazkur maqolada o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari, zamonaviy ta’lim yondashuvlarining didaktik imkoniyatlari hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari yoritilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda muammoli ta’lim, interfaol metodlar, raqamli ta’lim resurslari va o‘yin texnologiyalarining ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: mantiqiy fikrlash, zamonaviy ta’lim, innovatsion texnologiyalar, muammoli ta’lim, interfaol metodlar, raqamli resurslar, mustaqil fikrlash.

Kirish. Bugungi ta’lim tizimida o‘quvchilarga tayyor bilimlarni yetkazish bilan bir qatorda, ularda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Axborot oqomining kengayishi, raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga kirib kelishi va jamiyatning intellektual salohiyatga bo‘lgan ehtiyoji o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga yangicha yondashishni talab etmoqda. Mantiqiy fikrlash insonning voqea-hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlashi, ma’lumotlarni tahlil qilishi, ularni muayyan belgilar asosida taqqoslashi, umumlashtirishi va dalillarga tayangan holda xulosa chiqarishida namoyon bo‘ladi. Ushbu qobiliyatlar o‘z-o‘zidan shakllanmaydi. Ularni rivojlantirish uchun o‘quvchining yosh xususiyatlariga mos topshiriqlar, izlanishga undovchi savollar, muammoli vaziyatlar va faol bilish faoliyatiga asoslangan ta’lim muhiti zarur. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning keying intellectual rivojlanishi uchun muhim poydevor vazifasini bajaradi. Bu davrda o‘quvchilar o‘qish, yozish va hisoblash ko‘nikmalarini egallash bilan birga, tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash va matn yuzasidan xulosa chiqarish o‘quvchilarning tafakkur faoliyatini faollashtiradi.

Mantiqiy fikrlash – o‘quvchining ma’lumotlarni ongli ravishda qayta ishlashi, ular orasidagi muhim munosabatlarni aniqlashi va izchil mulohaza yuritishi bilan tavsiflanadigan bilish faoliyatidir. Uning rivojlanganligi o‘quvchining nafaqat bilimlarni o‘zlashtirishida, balki o‘zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo‘llay olishida ham namoyon bo‘ladi. Mantiqiy fikrlash bir-biri bilan uzviy bog‘langan bir necha ko‘nikmalarni qamrab oladi. Jumladan, tahlil qilish orqali o‘quvchi yaxlit hodisaning tarkibiy qismlarini ajratadi; taqqoslash yordamida o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlaydi; tasniflash asosida obyektlarni muayyan belgilarga ko‘ra guruhlaydi; umumlashtirish jarayonida esa alohida misollardan umumiy xulosaga keladi. Bundan tashqari, sabab va oqibatni aniqlash, dalillarni baholash, fikrlar izchilligini saqlash va xulosa chiqarish ham mantiqiy fikrlashning muhim ko‘rsatkichlaridir. Ushbu ko‘nikmalar o‘zaro bog‘liq holda rivojlanadi va ularni shakllantirish tizimli pedagogik faoliyatni talab etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda topshiriqlarning murakkabligi, ko‘rgazmaliligi va mazmuni ularning yosh imkoniyatlariga mos bo‘lishi lozim. Masalan, dastlab o‘quvchilardan predmetlarni belgilari bo‘yicha guruhlash talab qilinsa, keying bosqichda bir nechta belgini hisobga olish, noto‘g‘ri mulohozani aniqlash yoki muayyan fikrni dalillar bilan asoslash vazifalari berilishi mumkin. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning muhim sharti – o‘quvchini faqat to‘g‘ri javobni topishga emas, balki javobga qanday yo‘l bilan kelganini tushuntirishga ham o‘rgatishdir. O‘quvchi o‘z fikrini izohlash jarayonida mulohazalarini tartibga solidi, dalillarni saralaydi va xulosasining asoslanganligini tekshiradi. Shu sababli darslarda “Nima uchun shunday deb o‘ylaysan?”, “Boshqa yechim bo‘lishi mumkinmi?” kabi savollardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday savollar o‘quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiradi va ularni ongli mulohaza yuritishga yo‘naltiradi.

Zamonaviy ta’lim yondashuvlari o‘quvchini tayyor ma’lumotni qabul qiluvchi subyektdan bilimlarni izlash, tahlil qilish va amaliyotda qo‘llashda faol ishtirok etuvchi shaxsga aylantirishga qaratiladi. Bunda ta’lim mazmuni bilan birga, o‘quvchining bilish faoliyatini tashkil etish usullari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoli ta’lim o‘quvchilarning oldiga mavjud bilimlari yordamida darhol hal etilishi qiyin bo‘lgan, ammo izlanish orqali yechish mumkin bo‘lgan savol yoki vaziyatni qo‘yishga asoslanadi. Bunday sharoitda o‘quvchi taxminlarni ilgari suradi, ma’lumotlarni tahlil qiladi va yechimni asoslashga harakat qiladi. Masalan, ona tili darsida o‘quvchilarga quyidagi topshiriq berilishi mumkin: “Gul, daraxt, atirgul, terak so‘zlarini ikki xil usulda guruhlang va guruhlash mezoningizni tushuntiring”. O‘quvchilar dastlab gul va atirrgulni, daraxt va terakni birlashtirishi mumkin. Keyin ular umumiy va xususiy tushunchalar, o‘simliklarning turi hamda nomlar o‘rtasidagi munosabatlarni muhokama qiladilar. Muhimi, topshiriq bitta tayyor javob bilan cheklanmaydi: o‘quvchi tanlagan mezonini izohlashi kerak. Muammoli ta’limning samaradorligi o‘qituvchining vaziyatni to‘g‘ri tanlashi, zarur yo‘naltiruvchi savollar berishi va o‘quvchilarning mustaqil izlanishiga imkon yaratishiga bog‘liq.

Interfaol metodlar o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqot, fikr almashish, hamkorlik va birgalikda yechim topishga asoslanadi. Ular orqali o‘quvchilar o‘z nuqtayi nazarini bayon etish, boshqalarning fikrini tinglash, dalillarni solishtirish va asoslangan xulosaga kelish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

“Aqliy hujum” metodi. Bunda o‘quvchilarga muayyan savol beriladi va ular imkon qadar ko‘proq fikr bildiradilar. Keyingi bosqichda takliflar tahlil qilinib, asoslanganlari ajratiladi. Bu usul fikrlar xilma-xilligini ko‘rish va ularni baholashga yordam beradi. “Klaster” metodi. Markaziy tushuncha atrofida unga aloqador so‘zlar va fikrlar joylashtiriladi. Masalan, “Matn” tushunchasi atrofida sarlavha, gap, mazmun, asosiy fikr va xulosa kabi birliklar o‘zaro bog‘lanadi. O‘quvchilar tushunchalar orasidagi munosabatlarni aniqlashga o‘rganadilar. “Venn diagrammasi” metodi. Ikki tushuncha yoki obyektnig umumiy va farqli xususiyatlarini aniqlash uchun qo‘llanadi. Masalan, ertak va hikoya janrlarini taqqoslashda o‘quvchilar ularning o‘xshash hamda farqli jihatlarini mustaqil belgilaydilar. “Fikrni asosla” metodi. O‘quvchi bildirgan fikrini kamida bitta dalil bilan izohlaydi. Masalan, “Matnning asosiy qahramoni mehnatsevar” degan fikrni o‘quvchi matndan tegishli voqea va jumlani keltirish orqali asoslaydi. Interfaol metodlardan foydalanishda o‘quvchilarning faol ishtiroki, fikrlarning mantiqiyligi va dalillarning asoslanganligi asosiy mezon bo‘lishi kerak. Metodning shunchaki qo‘llanishi emas, uning ta’limiy maqsadga xizmat qilishi muhimdir.

Kompetensiyaviy yondashuv bilimni bilishning o‘zi bilan cheklanmay, uni real yoki o‘quv vaziyatlarida qo‘llay olishga e’tibor qaratadi. Mantiqiy fikrlash nuqtayi nazaridan bu yondashuv o‘quvchining o‘zlashtirgan til bilimlari asosida yangi vazifalarni bajarishi, matn mazmunini sharhlashi va mustaqil xulosa chiqarishida namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘quvchi gap bo‘laklari yoki so‘z turkumlari haqidagi bilimlarini yoddan aytib berish bilan cheklanmasligi lozim. U berilgan matndan tegishli birliklarni topishi, ularning vazifasini izohlashi, o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlashi hamda o‘z xulosasini misollar bilan asoslay olishi kerak. Kompetensiyaviy yondashuv doirasida topshiriqlar oddiy eslab qolishdan tahlil qilish, qo‘llash, baholash va yangi yechim taklif etish darajalariga qarab murakkablashtiriladi. Bu esa o‘quvchining fikrlash faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi.

Loyihaviy ta’lim o‘quvchilarning muayyan masala yuzasidan ma’lumot to‘plashi, ularni tartibga solishi, tahlil qilishi va yakuniy natijani taqdim etishiga asoslanadi. Hamkorlikda o‘qitish esa vazifalarni guruh a’zolari o‘rtasidagi taqsimlash, fikrlarni muhokama qilish va umumiy xulosaga kelishni nazarda tutadi. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida “Maqollar mazmunini mantiqiy bog‘lanishlar”, “Matndagi asosiy va ikkinchi darajali fikrlar” yoki “ So‘zarni ma’no guruhlariga ajratish” kabi kichik loyihalarni tashkil etish mumkin. Masalan, “ Maqol nimani anglatadi?” loyihasida o‘quvchilar maqolni tanlaydilar, uning mazmunini sharhlaydilar, hayotiy misol keltiradilar va maqoldagi sabab-oqibat yoki umumiy xulosa munosabatini izohlaydilar. Yakunda guruhlar o‘z natijalarini taqdim etib, boshqa guruhlarning savollariga javob beradilar. Bunday faoliyat o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashidan tashqari, nutqiy kompetensiyasi, mas’uliyati, hamkorlik ko‘nikmasi va o‘z fikrini omma oldida bayon qilish qobiliyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayonini mazamunan boyitish, o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undash va o‘zlashtirish natijalarini kuzatish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Biroq texnologiyaning samaradorligi uning zamonaviyligi bilan emas, balki pedagogik maqsadga qanchalik mos kelishi bilan belgilanadi. Interaktiv taqdimotlar, electron topshiriqlar, raqamli testlar, virtual doskalar va ta’limiy o‘yinlar o‘quvchilarga ma’lumotlarni ko‘rgazmali

shaklda taqdim etish hamda javoblarni tezkor tekshirish imkonini beradi. Masalan, raqamli topshiriqda o‘quvchiga bir nechta so‘z berilib, ulsrni ma’nosiga ko‘ra guruhlarga ajratish so‘raladi. Bajarilgan topshiriqdan so‘ng o‘quvchiga natijasini ko‘radi va xatolarini tahlil qiladi. O‘qituvchi esa qaysi topshiriqlar ko‘proq qiyinchilik tug‘dirganini aniqlab, keying mashg‘ulotlarni shunga muvofiq rejalashtirishi mumkin. Raqamli resurslarning afzalligi shundaki, ular bir xil mazmunni turli shakllarda taqdim etish, topshiriqlarni o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga moslashtirish va mustaqil ishlash imkoniyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, raqamli vositalardan foydalanish o‘qituvchining metodik boshqaruvini almashtirmaydi, balki uni to‘ldiradi. O‘yin texnologiyalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qiziqishi va faol ishtirokini kuchaytirish imkonini beradi. O‘yin topshiriqlari mantiqiy fikrlashga yo‘naltirilganda, ular oddiy ko‘ngilochar mashg‘ulotdan ta’limiy vositaga aylanadi. Masalan, “Ortiqcha so‘zni top” o‘yinida o‘quvchiga “olma, nok, shaftoli, sabzi” so‘zlari beriladi. U “sabzi” so‘zini ajratishi mumkin, chunki qolganlari mevalardir. Lekin o‘quvchi javobini asoslab berishi kerak. Shuningdek, topshiriqni boshqa tasnif mezoni asosida muhokama qilish imkoniyati ham ko‘zda tutilishi mumkin. “Gapni davom ettir” o‘yinida o‘quvchilar sabab-oqibat munosabatini ifodalovchi gaplarni mantiqan davom ettiradilar. Masalan: “Yomg‘ir yog‘gani uchun…”. O‘quvchilar vaziyatga mos javoblarni taklif qiladilar va ularning mantiqiy asosini tushuntiradilar. “Xatoni aniqlang” o‘yinida esa mazmunan noto‘g‘ri yoki mantiqiy izchilligi buzilgan jumlalar taqdim etiladi. O‘quvchilar xatoni aniqlab, to‘g‘ri variantni taklif qiladilar. Bunday topshiriqlar tahliliy fikrlash va o‘z javobini tekshirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilarning bilim darajasi, o‘rganish sur’ati va fikrlash usullari bir xil emas. Shu sababli mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko‘ra farqlash muhim hisoblanadi. Birinchi darajada o‘quvchilarga predmetlarni taqqoslash, ortiqcha so‘zni aniqlash yoki tayyor belgilar asosida tasniflash topshiriqlari beriladi. Ikkinchi darajada bir nechta shartni hisobga olish, matndagi sabab-oqibat munosabatini aniqlash va fikrni dalil bilan asoslash talab qilinadi. Yuqori darajada esa o‘quvchilar mustaqil mezon ishlab chiqishlari, bir nechta yechimni taqqoslashlari yoki muammoli vaziyat uchun yangi topshiriq tuzishlari mumkin. Differensial yondashuv barcha o‘quvchilarga bir xil talabni qo‘yishdan ko‘ra, ularning imkoniyatlariga mos ravishda rivojlanishiga ko‘maklashadi. Bunda topshiriqning murakkabligi bilan birga, o‘quvchiga beriladigan ko‘mak darajasi ham hisobga olinadi.

Zamonaviy ta’lim yondashuvlari va innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun darsning maqsadi, mazmuni, metodlari va baholash mezonlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish zarur. Shu maqsadda quyidagi metodik ketma-ketlikni taklif etish mumkin:

Birinchi bosqich – motivatsiya va muammoli vaziyat yaratish. O‘quvchilarga qiziqarli savol, rasm, qisqa matn yoki mantiqiy topshiriq taqdim etiladi. Bu bosqichda o‘quvchilarning mavjud bilimlari faollashtiriladi va izlanishga ehtiyoj yuzaga keltiriladi.

Ikkinchi bosqich – ma’lumotlarni tahlil qilish. O‘quvchilar berilgan materialni o‘rganadilar, muhim belgilarni ajratadilar, savollar tuzadilar va taxminlarini ilgari suradilar. Zarur hollarda klister, jadval yoki Venn diagrammasidan foydalaniladi.

Uchinchi bosqich – mustaqil yoki hamkorlikdagi yechim. O‘quvchilar topshiriqni individual, juftlikda yoki guruhda bajaradilar. Ular o‘z yechimlarini boshqa variantlar bilan taqqoslaydilar va tanlangan usulni izohlaydilar.

To‘rtinchi bosqich – xulosalash va asoslash. Har bir o‘quvchi yoki guruh o‘z natijasini taqdim etadi. O‘qituvchi javobning to‘g‘riligini baholash bilan cheklanmay, fikrning izchilligi va dalillarning asoslanganligiga ham e’tibor qaratadi.

Beshinchi bosqich – refleksiya va baholash. O‘quvchilar topshiriqni bajarishda nimalarni o‘rganganlarini, qaysi bosqichda qiynalganlarini va keyingi safar qanday usuldan foydalanishlarini izohlaydilar. O‘qituvchi esa keyingi darslar uchun zarur metodik xulosalarni chiqaradi. Ushbu ketma-ketliklarni amaliyotda qo‘llash uchun quyidagi namunaviy topshiriqdan foydalanish mumkin. Namuna: “Matndagi mantiqiy bog‘lanishni aniqlang”. O‘quvchilarga quyidagi jumlalar beriladi: 1. Dilshod ona tili darsiga tayyorlandi. 2. U matnni diqqat bilan o‘qidi. 3. Notanish so‘zlarning ma’nosini lug‘atdan topdi. 4. Matn mazmunini to‘g‘ri tushunib, savollarga javob berdi. Topshiriqlar: Jumlalarning mazmuniy bog‘lanishini tushuntiring. Qaysi harakatlar yakuniy natijaga erishishga yordam berganini aniqlang. Jumlalardan birini olib tashlasak, matn mazmunida qanday o‘zgarish yuz berishi mumkin? Ushbu matn asosida o‘qish samaradorligi haqida xulosa chiqaring. Mazkur topshiriq o‘quvchilardan jumlalarni o‘qib chiqish bilangina cheklanmasdan, harakatlar ketma-ketligi, sabab-oqibat munosabati va umumiy xulosa o‘rtasidagi aloqani aniqlashni talab qiladi.

Mantiqiy fikrlashni shakllantirish jarayonida o‘quvchining natijalarini faqat to‘g‘ri javoblar soni bilan baholash yetarli emas. O‘quvchining fikrlash jarayoni, qo‘llagan usuli, dallilarni tanlashi va xulosaning izchilligi ham hisobga olinishi kerak. Baholashda quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

Mezon	**Kuzatiladigan ko‘rsatkich**
Tahlil qilish	Ma’lumotning muhim qismlarini ajrata oladi
Taqqoslash	O‘xshash va farqli belgilarni aniqlaydi
Tasniflash	Obyektlarni belgilangan mezon asosida guruhlaydi
Sabab-oqibatni aniqlash	Hodisalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishni tushuntiradi
Dalillash	O‘z fikrini misol yoki matn mazmuni bilan asoslaydi
Xulosa chiqarish	Tahlil natijasida izchil xulosaga keladi

Mazkur mezonlar asosida o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatish mumkin. Masalan, dastlab o‘quvchi faqat o‘qituvchi yordami bilan xulosa chiqarsa, keying mashg‘ulotlarda mustaqil ravishda dalil topishi va fikrini asoslay olishi uning rivojlanishidan dalolat beradi.

Muhokama. Yuqorida ko‘rib chiqilgan yondashuvlar mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda turli pedagogik imkoniyatlarga ega. Muammoli ta’lim o‘quvchini izlanishga undasa, interfaol metodlar fikr almashish va dalillashga sharoit yaratadi. Kompetensiyaviy yondashuv bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltiradi, loyihaviy ta’lim esa tahlil va umumlashtirishni izchil faoliyat bilan bog‘laydi. Raqamli texnologiyalar ushbu jarayonlarni ko‘rgazmali, moslashuvchan va kuzatish uchun qulay shaklda tashkil etishga yordam beradi. Biroq innovatsion texnologiyalarning mavjudligi o‘z-o‘zidan yuqori natijani kafolatlamaydi. Agar

darsda o‘quvchi faqat tugmalarni bosish, javob variantini tanlash yoki tayyor ma’lumotni ko‘chirish bilan cheklansa, uning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish imkoniyati cheklangan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun har bir topshiriq o‘quvchini fikrlashga, sabablarni izohlashga va xulosani asoslashga yo‘naltirishi zarur. Bundan tashqari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun raqamli vositalardan foydalanish va an’anaviy ta’lim metodlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash muhimdir. Og‘zaki munozara, yozma mashq, ko‘rgazmali material, kitob bilan ishlash va raqamli topshiriqlar bir- birini to‘ldirishi kerak.

Ona tili darslari o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Matnni o‘qish va tushunish, asosiy fikrni ajratish, so‘zlarning ma’nosini izohlash, gaplar orasidagi mazmuniy munosabatlarni aniqlash, voqealar ketma-ketligini tiklash hamda matn yuzasidan xulosa chiqarish jarayonlarida o‘quvchilar turli aqliy amallarni bajaradilar. Agar mazkur faoliyatlar o‘qituvchi tomonidan maqsadli tashkil etilsa, ona tili darslari nafaqat savodxonlikni rivojlantirish, balki o‘quvchilarning mustaqil va izchil fikrlash ko‘nikmalarni shakllantirish vositasiga ham aylanadi. Interfaol metodlar foydalanish o‘quvchilarning fikrini tahlil qilishiga yordam beradi. Juftlikda ishlash, kichik guruhlarda muhokama o‘tkazish, savol-javob va fikrlar taqqoslash kabi faoliyatlar o‘quvchilarga o‘z qarashlarini tushuntirish, boshqalarning fikrini tinglash va umumiy xulosaga kelish imkonini beradi. Biroq interfaol metodlarning samaradorligi faqat o‘quvchilarning faol qatnashishi bilan belgilanmaydi. Topshiriqlar aniq maqsadga ega bo‘lishi, har bir o‘quvchi fikrlash jarayonida ishtirok etishi va yakuniy xulosalar mazmunan asoslanishi kerak. Ta’lim jarayonida individual va differensial yondashuvni qo‘llash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim darajasi, topshiriqni bajarish tezligi va fikrini ifodalash imkoniyatlari bir xil emas. Shu sababli o‘qituvchi bir mavzu doirasida turli murakkablikdagi vazifalarni taklif qilishi maqsadga muvofiq. Ayrim o‘quvchilarga tayanch savollar va ko‘rgazmali vositalar zarur bo‘lsa, boshqalarga mustaqil tahlil qilish va bir nechta yechimni taqqoslashni talab qiladigan topshiriqlar berilishi lozim. Bunday yondashuv har bir o‘quvchining imkoniyatiga mos rivojlanish sharoitini yaratishga xizmat qiladi.

Muhokama natijasida shuni ta’kidlash mumkinki, zamonaviy ta’lim yondashuvlari va innovatsion texnologiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun keng metodik imkoniyatlar yaratadi. Biroq ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish o‘qituvchining darsni maqsadli tashkil etilishi, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishi, fikrni dalillashga yo‘naltirilgan topshiriqlarni tanlashi va natijalarni izchil baholab borishiga bog‘liq.

XULOSA. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida ijodiy topshiriqlar, didaktik o‘yinlar, taqqoslash va tasniflash mashqlari, muammoli savollardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Bunda topshiriqlarning mazmuni o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi va individual ehtiyojlariga mos bo‘lishi lozim. O‘quvchiga o‘z javobini izohlash, dalil keltirish va boshqa fikrlarni tahlil qilish imkonini berish mantiqiy fikrlashni rivojlantirish jarayonining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Innovatsion va raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonida ko‘rgazmalilik kuchaytirish, topshiriqlarni interaktiv shaklda tashkil etish va o‘quvchilarga o‘z natijalarini tekshirish

imkonini beradi. Shu bilan birga, texnologiyalardan foydalanish darsning pedagogik maqsadiga bo‘ysundirilishi zarur. Raqamli vositalar an’anaviy mashqlar, og‘zaki muhokama, yozma faoliyat va kitob bilan ishlashni to‘ldiruvchi vosita sifatida qo‘llanilganda ta’lim jarayoni yanada mazmunli tashkil etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

2.Abdirasulova D. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish”. Central Asian Journal of Education and Innovatsion, 2026.

3.Djuraboyev M., Badridinov N. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda elementar matematikaning o‘rni”. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali.

4.Kamoliddinova D. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning samaradorligi”. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 2026.

5.Mamayusupova M.Q., Saydakbarova M. “Boshlang‘ich ta’limda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish: zamonaviy metodlar va yondashuvlar”. Ta’lim ufqlari, 2026.

6.Qodirbekova Z. “Yangi avlod darsliklarida matnli masalalar orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish”. Yosh olimlar, 2026.

7.G‘iyosova D. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o‘rgatish usullari”. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 2026.

8.Mirzaqobilova S. “Boshlang‘ich ta’lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari”. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali.

9.Toshtemirova M.K., Salimova M.H. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mantiqiy fikrlashni o‘rgatish metodikasi”. Tadbirkorlik va pedagogika ilmiy-uslubiy jurnali, 2025.

10.Toshtemirova M.K. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari”. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali.